

**XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT**
(2020-yil yanvar-sentabr, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-oktabr holatiga 1884,1 ming kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 17,6 ming kishiga yoki 0,9 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 624,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,1 %), qishloq aholisi soni 1259,7 ming kishini (66,9 %) tashkil etdi.

E'tibor bering
2020-yil yanvar-sentabr


Doimiy aholi soni **17,6 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **28,8 ming nafarni** tashkil etdi.

FHDYO bo'limlarida **8,3 mingta nikoh** va **0,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar
(Yanvar-sentabr, ming kishi)


	2019-y.	2020-y.
Doimiy aholi soni	1856,4	1884,1
Tug'ilganlar	28,1	28,8
Kelganlar	4,2	3,5
Ketganlar	5,6	7,3
Migratsiya saldos	-1,4	-3,8
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	10,1	8,3
Nikohdan ajralishlar, ming birk	0,7	0,7
1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille		
tug'ilish	20,3	20,5
Kelganlar	3,1	2,5
Ketganlar	4,1	5,2
tuzilgan nikohlar	7,3	5,9
nikohdan ajralishlar	0,5	0,5

XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT
(2020-yil yanvar-sentabr)


**Hududlar kesimida doimiy aholi soni**
(1-oktabr holatiga)

	2019-y.	2020-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	1856,4	1 884,1	101,5
Urganch sh.	143,1	144,6	101,0
Xiva sh.	91,6	92,9	101,4
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	162,9	165,7	101,7
Gurlan	146,9	148,9	101,4
Qo'shko'pir	170,6	172,9	101,3
Urganch	196,5	200,2	101,9
Hazorasp	191,8	194,6	101,5
Tuproqqal'a	54,7	55,5	101,5
Xonqa	184,6	187,3	101,5
Xiva	143,9	146,4	101,7
Shovot	168,3	170,8	101,5
Yangiariq	114,9	116,6	101,5
Yangibozor	86,6	87,7	101,3

Hududlar kesimida aholi soni (yanvar-sentabr)



Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-oktabr holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)



Viloyat hududlari kesimida qilingan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Urganch tumanida qayd qilinib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 10,6 %ni tashkil etgan, keyingi o'rinlarda Hazorasp tumanida 10,3 %ni, Xonqa tumanida 9,9 %ni va Qo'shko'pir tumanida 9,2 %ni tashkil etgan.

Xorazm viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-sentabr)



Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida 28,8 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlar sonida faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,5 promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega oshganligi (2019-yilning yanvar-sentabr oylarida 20,3 promille bo'lgan) kuzatildi.

Shaharlar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti


(2020-yil yanvar- sentabr)



"Tug'ilganlar soni,
ming kishi"




"Tug'ilish koeffitsiyenti,
aholiga nisbatan, promille"



Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Nikoh. 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 8,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,9 promilleni tashkil etdi.


Xorazm viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- sentabr)



Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 0,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.


Shaharlar va tumanlar kesimida nikoh tuzganlar va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti

(2020-yil yanvar- sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Ajrimlar sonida 2019 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangibozor tumaniga (61,9 %) va Qo'shko'pir tumaniga (12,9 %) to'g'ri kelmoqda.

Xorazm viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- sentabr)



Migratsiya. 2020-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 3,8 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 1,4 ming kishi bo'lgan.

**Aholi migratsiyasi***ming kishi*

	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	4,2	3,5
Ko'chib ketganlar	5,6	7,3
Migratsiya saldosi	-1,4	-3,8

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 0,8 ming kishi), Qo'shko'pir (minus 0,6 ming kishi), Gurlan (minus 0,5 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Urganch tumanida (plus 0,4 ming kishi) kuzatildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi.**